

## PEDAGOGIK JARAYONNI OLIB BORISHDA PEDAGOGIK MAHORATNING ROLI

**Kamalova Nodira Akrambekovna**

**116-Ixtisoslashtirilgan Davlat Umumta'lim maktabi**

**Tarbiya huquq fani o'qituvchisi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12792417>

**Annotatsiya:** Pedagogik mahorat – pedagogning pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta mohirlik, ustalik bilan tashkil etishi hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga egaligidir. Ushbu tezis mazkur masalaning muhokamasiga bag'ishlanadi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik mahorat, innovatsion g'oya va yangiliklar, kreativ yondashuv, intellektual qobiliyat, tanqidiy va tahliliy fikrlash.

### KIRISH

Pedagogik mahorat o'qituvchi shaxsidan tabiiy imkoniyatlar, ta'limiy- tarbiyaviy iqtidor, o'z vazifasiga mas'uliyat bilan qarash, o'quvchini diqqat bilan kuzatish va uning shaxsidagi o'zgarishlarni o'z vaqtida sezish va bundan kelib chiqib, o'quvchi shaxsiga yondashishni talab qiladi. Aslida, kasbiy mahorat shaxsning biror kasbga oid ishlarni mohirlik bilan bajarishida namoyon bo'ladi. Pedagogik mahorat o'zining bir qancha tarkibiy qismlariga ega. Ammo bu qismlar yillar davomida ko'payib yoki mazmunan o'zgarib boradi. Pedagogik mahoratni o'qituvchi, murabbiy pedagoglik kasbi uchun lozim bo'lgan talablarni bajargan holda uning vazifalarini to'laqonli bajarishida ko'rishimiz mumkin.

### ASOSIY QISM

Pedagogik mahoratni shartli ravishda 2 qismga bo'lib tahlil qilish mumkin:

Birinchisi, bu pedagog mahoratining shaxsga bog'liq tomonlari bilan bog'liq. Shaxsning yuksak ahloqiy fazilatga erishishi, ichki va tashqi axloqining namuna bo'lishiga oid jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Insoniylik, bolalarni sevish, adolatlilik, odillik kabi tuyg'ular egasi bo'lishi lozim bo'ladi. Shaxs sifatida yetuk namuna bo'lishi uning kasbiy mahoratiga ta'sir qiladi.

Pedagog darsda va darsdan tashqari vaqtlarda ham, hatto oilada ham, mahallada ham yuksak hurmatga ega bo'lishi lozim. Pedagoglik, aslida, ba'zan kasb emas, qobiliyat sifatida ham namoyon bo'ladi. Bunda shaxs o'zining ichki xususiyatlari orqali o'zi anglamagan holda pedagogik mahorat egasiga aylanadi. Ya'ni u atrofdagilar uchun ilm-ma'rifat ulashadi va bunda yuqori natijalarga erishadi. Pedagog shaxsiga xos xususiyatlar uning madaniyatiga ham bog'liq. Pedagog shaxsi estetik jihatdan ham ma'lum ko'nikma egasi bo'lishi lozim bo'ladi. Pedagogning kasbiy mahorati, shuningdek, kasb bilan ham bog'liq. O'qituvchi uchun kasbiy talablar juda yuqori bo'lib, avvalo, yetuk mutaxassis nazariy va amaliy bilimga ega shaxs sifatida namoyon bo'ladi. Nutqiy yetuklikka erishadi, ya'ni nutqqa oid ko'plab talablarni bajaradi va ularga rioya etadi.

Ikkinchisi, eng muhim talablardan biri – uning pedagogik, ya'ni ta'lim berish bilan bog'liq metodik mahoratidir. Ba'zida mukammal amaliy-nazariy bilimga ega bo'lgan pedagog ushbu bilimlari yetkazib bera olmasligi mumkin. Ya'ni bunday dars jarayoni tahsil oluvchilar uchun ijobiy e'tirof etilmaydi [2].

Amaliy va nazariy bilimi uncha yuqori bo'lmasdan, uni yetkazib berish qobiliyati, metodikasi yuqori pedagog, aslida, ilm oluvchilar uchun qadrliroqdir. Bilimlarini yetkaza

olmagan pedagogni biz bargsiz, shoxsiz daraxtga o'xshatishimiz mumkin bo'ladi. Ya'ni uning bilimi kerak paytda o'ziga ham foyda bermasligi mumkin.

Pedagogik mahorat, aslida, nimalarda namoyon bo'ladi? Bu o'qituvchining nafaqat davlat talablari asosida dars o'tishida, balki darsning natijasi va samaradorligida ko'rinishi kerak. Bu pedagogning mahorati, unga ajratilgan dars mashg'ulotini san'at darajasiga olib chiqishi kabilarda ko'rinadi.

Pedagogning dars jarayonidagi mahorati, avvalo, o'sha darsning pirovard natijasini oldindan ko'ra olishida, deb hisoblaymiz. Negaki agar pedagog darsga nimadir qilib, vaqtni o'tkazaman, deb kirsam, unda u hech qanday maqsadga erishmaydi. O'qituvchi mahorati shundaki, u darsda xuddi teatr sahnasida rol ijro qilayotgan aktyor kabi bo'lishi lozim. U o'ziga yuklatilgan vazifani o'quvchilar ishonchini oqlagan holda bajarishi lozim. Bunda eng muhim jihat uning o'ziga bo'lgan ishonchi hisoblanadi. Agar pedagogda har qanday auditoriyani zabt eta olish ishonchi shakllansa, u ma'lum natijaga erisha olgan pedagog sanaladi.

Pedagogik mahorat o'qituvchi va o'quvchi, ta'lim jarayoni bilan bog'liq bo'lgan barcha xodimlar o'rtasidagi aloqa muhiti bilan ham belgilanadi. Pedagog, asosan, jamiyatning ziyoli qatlami vakili sifatida jamiyatning barcha a'zolari bilan muloqotga kirishadi. Bu ota-ona, mahalla va kasbdoshlar jamoasi bo'lishi mumkin. O'zaro hurmatni saqlagan holda ota-ona tushunadigan tilda ular bilan muloqotga kirishishi lozim bo'ladi.

Afsuski, Respublikamizda ta'lim-tarbiya berayotgan pedagoglarning barchasini mahoratli pedagog, deya olmaymiz. Bunga turli sabablarni keltirishimiz mumkin.

Jumladan, dars berayotgan o'qituvchilarning ko'pchiligi o'z kasbini sevmaydi. Afsuski, bu sohaga adashib yoki o'zi istamagan holda kirib dars berayotgan pedagoglarimiz ham kam emas.

Pedagoglarning mahoratini shakllantirish va rivojlantirish uchun quyidagi tavsiyalarni keltirib o'tamiz. Pedagog [3]:

- eng avvalo, tinimsiz o'z ustida ishlashi;
- malakali pedagoglar tajribalarini o'zlashtirishi;
- axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi va faoliyatida qo'llab borishi;
- yosh davrlar psixologiyasini o'rganishi.

Insonning shakllanishi, chin ma'noda, baxtli hayot kechirishida bilim olish, ilmga intilish, fan yutuqlaridan bahramand bo'lish muhim ahamiyat kasb etadi. Zotan, ilm-fan yutuqlari, innovatsion texnologiyalar odamlarning farovon turmush kechirishiga xizmat qilishi bilan ham e'tiborlidir. Qaerda ilm-fan rivoj topsa, o'sha yerda taraqqiyot bor.

### **XULOSA VA MUNOZARA**

Xulosa qilib aytganda, ta'lim jarayoni insonda mustaqil hamda ijodiy fikrlashni tarbiyalash bilan bir qatorda, insonning o'zini namoyon etishiga, yangi- yangi bilimlarni o'zlashtirishiga, innovatsion madaniyatning shakllanishiga xizmat qiladigan tizim bo'lishi lozim. O'qituvchi – bu, avvalo, dars boshqaruvchisi. O'quvchining darsda biror-bir yangilik olishi va shu yangilik orqali nimadir qila olishi uning mahorati, bilimi va saviyasiga bog'liq. Har bir dars o'quvchi hayotida unutilmas voqea, fikrida yangi kashfiyot bo'lib qolmog'i uchun o'qituvchi o'quvchini passiv tinglovchidan faol ishtirokchi darajasiga olib chiqishi zarur. Bunda o'qituvchidan yuksak intellektual qobiliyat, o'quvchilarning qiziqishlarini to'g'ri aniqlab, maqsad sari yo'naltira olish talab qilinadi.

### References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. 30.09.2020. <http://uza.uz/posts/3452>.
2. Ishmuhamedov R.J. va bosh.q Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari (2-kitob). – T.: TDPU. 2019.
3. Sayidahmedov N.S., Indiaminov N.N. Pedagogik mahorat va pedagogik texnologiya. – T.: Fan va texnologiya. 2014.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)



INNOVATIVE  
ACADEMY